

## INKLYUZIV TA'LIMNING O'ZBEKISTONDAGI RIVOJLANISHI

**Goziyeva Nargiza Murodillayevna**

*Andijon viloyati Baliqchi tumani  
44-umumta'lim maktabi maxsus pedagogi*

**Annotatsiya.** *Ta'limni rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyalari, inson individualligining o'ziga xosligi va o'zini o'zi qadrlashini tan olish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun mustaqil hayot g'oyalarini rivojlantirishga qaratilgan yangi pedagogik strategiyalar bilan ishlashni ijtimoiylashtirish usullari muhokama qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *Inklyuzi ta'lim, nogiron bolalar, sog'lom bolalar, teng huquqlik, imkoniyat, cheklanganlik, mutaxassis, o'qituvchi, qonun, rivojlantirish.*

Inklyuziv ta'lim — davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. "Inklyuziv ta'lim" atamasi fransuzcha „inclusif“ so'zidan kelib chiqqan bo'lib, „o'z ichiga oladi“ deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo'lgan va shartli ravishda sog'lom, ya'ni sog'ligi cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta'limini anglatadi. Inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas.

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. Inklyuziv ta'lim olish jarayoni bir-biriga o'xshamaydigan, intellektual, jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega bo'lgan odamlar maxsus bilimga muhtoj bo'lmagan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko'nikmalarni oladigan tarzda tashkil etiladi. Inklyuziv ta'lim-alohida ehtiyojli bolalar bilan sog'lom bolalar uchun teng ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi.

Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etish. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordam olishi darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi. 19-may kuni Oliy Majlis ilk bor inklyuziv ta'lim tushunchasi kiritilgan yangi tahrirdagi „Ta'lim to'g'risida“ gi qonun qabul qildi. O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi mutaxassislar

bilan birga qonun loyihasining inklyuziv ta'lim tamoyillariga muvofiqligi bo'yicha tahlil o'tkazdi. Qonunning 20-moddasi olish imkoniyatini yaratadi.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim loyihasi» asosida ish yuritib kelinmoqda.

Bunda, asosan, inklyuziv ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish ko'zda tutilmoqda. Inklyuziv ta'limni chuqurroq o'rganish, u bilan bog'liq muammolarni aniqlash, samaradorlik jihatlarini asoslab berish dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda. Chunki inklyuziv ta'lim usuli barcha bolalarning ruhiy-jismoniy holatidan qat'i nazar ta'lim jarayonida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlashga qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, u alohida yordamga muhtoj bolalarning atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishi, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan bo'lib ulg'ayishi, o'z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish ko'nikmalarini egallashi, hayotga moslashib, umumta'lim maktablarida sog'lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o'qiy olishi, ular bilan o'zaro do'stona munosabatga kirishishi, darslarni o'z vaqtida o'zlashtirishi, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashishi uchun qulayliklar tug'diradi. Shuni nazarda tutib, mazkur monografiyada inklyuziv ta'limning o'ziga xos samaradorlik belgilarini asoslash, uni oiladan, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz ta'lim jarayonida yo'lga qo'yish uchun zaruriy pedagogik-psixologik yondashuv yo'llarini aniqlash ko'zda tutildi. Shunisi borki, inklyuziv ta'lim nafaqat nogiron bolalar o'rtasida, balki sog'lom turmush tarziga asoslangan oilada tarbiyalanayotgan bolalar o'rtasida, maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, akademik litsey va kasbhunar kollejarida ham fanlarni o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lgan o'quvchilar uchun qulay imkoniyatlar yarata oladi. U orqali o'quvchilarning bir-biriga ijobiy ta'sir ko'rsata olishiga erishish yaxshi natija keltiradi. Lekin ba'zan sog'lom bolalar bilan nogiron bolalar orasidagi tafovut sezilib qolishi, nogiron bola o'z tengdoshlariga qo'shilmay, tortinishi, o'z imkoniyatlaridan foydalana olmasligi sabab uyalib turishi, kamsitilishi, ayrimlari esa oilada haddan tashqari erka o'stirilganligi tufayli qaysarlik, injiqlik qilishi kuzatiladiki, bunday sharoitda ta'lim amaliyoti va ta'lim xizmatlarini tashkillashtirishda o'zgarishlar qilishga to'g'ri keladi. Bularning barchasi inklyuziv ta'lim jarayoni o'ziga xos murakkabliklarga ega ekanligini va shu sohada ishlaydigan o'qituvchilar, sinf rahbarlari, tarbiyachilar, kasbiy mahorat ustalari zimmasiga jiddiy talablar va mas'uliyatlar yuklashini oydinlashtiradi hamda tadqiqot mavzusining serqirra va murakkabligidan dalolat beradi.

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajramagan xolda yashash huquqini ro'yobga chiqarish;
- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mexr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etish ustida olib borilgan tajribalardan shu narsa o'z isbotini topdiki, har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o'z vaqtida aniqlab mutaxassislariga murojaat qilinsa va maktabga tayyorgarlik ishi o'z vaqtida olib borilsa albatta, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Ya'ni inklyuziv ta'limning samarasi yuqori darajada bo'ladi.

Muxtasar qilib aytganda, Mamlakatimizda ham inklyuziv ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy me'yorlari ishlab chiqilganligi biz kabi mutahassislarni ham juda quvontirdi, albatta.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ibadullayeva, S. N., Masaliyeva, S. (2022). Inklyuziv ta'lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirish omillari. Inklyuziv ta'lim, 1(2), 111-113.
2. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Nogironligi bo'lgan ota-ona qaramog'ida bo'lgan yetim bolalarni ijtimoiylashtirishning metodik klasteri. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 6(1), 280-286.
3. Shomaxmudova .R.Sh Inklyuziv ta'lim (Xalqaro va O'zbekistondagi tajribalar) Toshkent-2011
4. Xodjayev. B Umumiy Pedagogika nazariyasi va amaliyoti Toshkent-2017 (188bet)
5. "Ta'lim hamma uchun" Milliy dasturi rejasi Toshkent-2003
6. "Maktablar hamma uchun"- „ Bolalarni qutqaring jamg'armasi"-2002
7. "Ta'lim hamma uchun milliy dasturini joriy qilish masalalari" mavzusidagi ilmiy –amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2005
8. Muzaffarova, X. (2021). AQLI ZAIFLIK TUSHUNCHASI TALQINIDAGI NAZARIY XATOLARNING SALBIY OQIBATLARI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, (2).